

Eski parta

Valentin Valentov



Partalarning kelib chiqish tarixi juda qiziq! Uzoq o'tmishda bolalar oddiy stol va o'rindiqlarda o'tirib, ta'lim olishgan. O'quvchilar uchun maxsus ishlab chiqilgan ilk partalar XIX asrda paydo bo'lgan. Ular yog'och va metallardan tayyorlanib, kitob-daftarlar uchun tokchalarga ega bo'lgan.

Hozirda partalar yanada qulay bo'lib, bolalar ularda yozish va chizishni o'rganadilar. Har bir parta ko'plab voqealar va bilimlar guvohidir. Ushbu partalarda bo'lajak olim-u fazogirlar, o'qituvchi-yu shifokorlar o'tirishadi.



O'qing.

Yoz tugagach, bolalar maktabga borishdi. Qarashsaki, ikkinchi sinfda partalar yetarli emas. So'ng xo'jalik bo'limining mudiri eski parta olib keldi va yangilarining yoniga qo'ydi. Lekin bu partaga hech kim o'tirgisi kelmadi.

Shunda o'qituvchi eski partaning yoniga kelib, asta o'tirdi. So'ng:

– Bu, men ko'p yillar oldin o'tirgan qadrdon partam. Men uni juda yaxshi ko'rar edim.



O'zim yuvib, bo'yar edim. Buni qarangki, hali ham saqlanib qolibdi! – dedi.

O'qituvchining ko'zlari yoshlandi.

Bolalar hurmat bilan partaga qarashdi. O'qituvchi o'rnidan turishi bilan hamma parta tomon chopdi. Har bir o'quvchi ushbu partada o'tirishni xohlar edi. Ammo noiloj, parta bitta, sinfdagi bolalar esa o'ttizta!

Bolalar ushbu partada navbatma-navbat o'tirishga kelishib olishdi. Ustiga-ustak partaga faqat yaxshi va a'lo baholarga o'qiydigan bolalar o'tirishi mumkin edi. So'ng, mo'jiza yuz berdi – chorak yakunida “3” bahoga o'qiydigan birorta ham o'quvchi qolmadi.

Har bir o'quvchi qachonlardir o'qituvchisi o'tirgan eski partada o'zining faxrli o'rniga ega bo'lishni xohlar edi.



1. Yoz tugagach, bolalar qayerga borishdi?
2. Bolalar nimani aniqlashdi?
3. Nima uchun bolalar eski partada o'tirishni xohlashmadi?
4. O'qituvchi parta haqida nimalarni so'zlab berdi?
5. Ushbu hikoya bizni nimaga o'rgatadi?



Hikoyani gapirib berishga tayyorlaning.

